# MINTAQADA FAOL INVESTITSIYA SIYOSATINI IQTISODIYOT TARMOQLARINI O'SISHIGA TA'SIRI

**Jumayeva Z.Q.**
*Osiyo Xalqaro Universiteti*
**Matkarimov G`.E.**
*Osiyo Xalqaro Universiteti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada faol investitsiya siyosatining mintaqaviy iqtisodiyot tarmoqlarining o'sishiga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada mintaqalarda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun investitsiya muhitini yaxshilash, yuqori texnologiyali tarmoqlarga investitsiya jalb qilish hamda chet el kapitalidan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, iqtisodchilarning iqtisodiy o'sish nazariyalari va mintaqaviy investitsiya siyosatini rivojlantirish bo'yicha turli ilmiy yondashuvlari o'rganilib, samarali investitsiya dasturlarini ishlab chiqishning dolzarbligi asoslangan.*

**Kalit so`zlar:** *mintaqa, iqtisodiy o`sish, tarmoq, investitsiya, investitsiya siyosati, investitsiya muhiti.*

Har qanday iqtisodiy islohotlar zamirida mamlakat hududlari iqtisodiy o'sishini ta'minlash orqali xalqning hayot darajasi va turmush farovonligini oshirish vazifalari yotadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan faol investitsiya siyosati va ishlab chiqarishga chet el kapitalini jadal o'zlashtirishning asosiy maqsadi ham mintaqalarda barqaror rivojlanishni ta'minlash orqali xalq farovonligiga erishishdir. Shuning uchun ham yurtimizga investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ishlab chiqishda, albatta, investitsiyalarning asosiy maqsadi va natijasi bo'lgan "iqtisodiy o'sish" tushunchasining mohiyatini o'rganish, unga oid nazariya va ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish lozim.

Mintaqalarda barqaror iqtisodiy o'sish unga investitsiyalarni faol jalb qilish va samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish hajmining oshishiga bog'liqdir. Bunda, ayniqsa, investitsiyalarni faol va oqilona jalb qilish orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, tarkibiy qayta qurish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bilan iqtisodiy o'sish sifatini oshirish katta ahamiyat kasb etadi.

Aytish mumkinki, respublika mintaqalarida qulay investitsiya muhitini shakllantirish, investitsiyalarni ishlab chiqarish tarmoqlariga faol o'zlashtirishni ta'minlash, yuqori texnologiyali tarmoqlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish, chet el kapitalini jalb qilish orqali ishlab chiqarish sifatini oshirish kabi vazifalarning asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir. Bu esa iqtisodiy o'sish tushunchasining iqtisodiy

kategoriya sifatidagi mohiyatini yoritish va unda investitsiya omili rolining asoslanishini taqozo etadi.

Iqtisodiy o‘sish tushunchasiga oid o‘ziga xos yondashuv va fikrlar turli adabiyot va manbalarda o‘z aksini topgan. Jumladan, ba’zi mahalliy iqtisodchi olimlarimiz asarlarida iqtisodiy o‘sish bu iqtisodiyotning rivojlanishi, ya’ni hayotiy ne’matlar bo‘lgan tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishining ko‘payib borish jarayoni sifatida talqin qilingan[15]. Etuk iqtisodchi o‘zbek olimi A.A.Sodiqov esa mamlakatning iqtisodiy o‘sishiga hududiy xususiyatlarni ham e’tiborga olgan holda yanada kengroq ko‘lamda izoh berib, mamlakat mintaqalarining mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosi ekanligini ta’kidlab o‘tgan[16].

Yuqorida keltirilgan yondashuv va ta’riflar asosida aytish mumkinki, iqtisodiy o‘sish bu muayyan ishlab chiqaruvchi birlik tomonidan u hoh mamlakat darajasida yoki kichik korxona bo‘lsin, ishlab chiqarish hajmining avvalgi davrlarga nisbatan miqdoriy jihatdan o‘zgarish darajasini ifodalaydi.

Ta’kidlash joizki, mintaqaviy iqtisodiy o‘sish ishlab chiqarishning ushbu hududda asosan miqdoriy o‘zgarishini ifodalasa, iqtisodiy rivojlanish esa undan ko‘ra kengroq tushuncha bo‘lib, nafaqat miqdoriy o‘zgarish balki sifat, ko‘lam va barqarorlik xususiyatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish avvalo moliyalashtirish resurslarining mavjudligi va investitsiya resurslarini faol jalb qilish imkoniyatlariga bog‘liq. Boshqacha aytganda, mamlakatning alohida mintaqalarida ishlab chiqarishga investitsiyalarni oqilona jalb qilish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hududiy darajada ishlab chiqilayotgan iqtisodiy va investitsiya dasturlariga bog‘liqdir. Mintaqaviy iqtisodiy fanlar oldida doimo investitsion boshqaruv tizimini takomillashtirish, investorlar faoliyatining omillarini tahlil qilish, investitsiyalar bozorini rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish, investitsiya hajmlarini oshirish va resurslarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo‘naltirish orqali mintaqada investitsion faollikni oshirish uchun yangi shart-sharoitlar yaratish vazifasi turadi[17].

---

[15] Ўлмасов А., Ваҳобов А.В. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. –Тошкент: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. 269-б.

[16] Садыков А.А. Основы регионального развития: теория, методология, практика//Монография. Ташкент. «IQTISOD-MOLIYA», 2005. С. 9.

[17] Герасенко В.П., Насеко Г.А., Герасенко П.В. Инвестиционный менеджмент: комплексная концепция. Монография. Гомель: Белорусский центр бизнеса «Альтаир», 2000. – 60 с.

Hududiy yoki mintaqaviy investitsiya siyosatini olib borishda albatta har bir hududning nisbiy ustunliklari va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Mintaqaviy investitsiya siyosati deganda hudud iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasini tushunish mumkin. Hududlarda investitsiya faoliyati nisbatan iqtisodiy-huquqiy va tashkiliy-ma’muriy jihatdan o‘ziga xos bo‘lishiga qaramay, umumdavlat investitsiya siyosati ustuvor yo‘nalishlari va maqsadlaridan kelib chiqishi zarur. Mamlakatda mintaqa darajasida olib boriladigan investitsiya siyosati hududiy, ishlab chiqarish, mehnat resurslaridagi tafovutlarni hisobga oladi. Manba va adabiyotlarda “mintaqaviy investitsiya siyosati”tushunchasiga oid yagona standart yondashuv berilmagan. Shuning uchun tadqiqot maqsadidan kelib chiqib “mintaqaviy investitsiya siyosati” tushunchasining alohida jihatlari o‘rganilgan.

V.V.Xodus mintaqaviy investitsiya siyosatiga quyidagicha izoh beradi - mintaqaviy investitsiya siyosati bu asosan federal, subfederal, mintaqaviy va munitsipal hokimiyat va boshqaruv organlari hamda boshqa sub’ektlar (investorlar) tomonidan amalga oshiriladigan, hududlar investitsiya salohiyatini harakatga solish va samarali foydalanish, mintaqada investitsiya jarayonlarini faollashtirish va rag‘batlantirishga qaratilgan, rivojlanishning taktik va strategik maqsadlarini ko‘zlaydigan mintaqaviy siyosatning tarkibiy qismidir[18].

Yuqoridagi tushunchaga E.N.Novokshonova yanada kengroq ta’rif beradi. Uning fikricha mintaqaviy investitsiya siyosati mintaqaviy siyosatning tarkibiy qismi bo‘lib, mintaqaning strategik maqsadlariga erishish va iqtisodiy o‘sish vazifalarini hal qilishni ta’minlovchi, o‘z ichiga hokimiyatning mintaqaviy organlarining hududlarning investitsiya salohiyatini harakatga solish va samarali rivojlantirish, mintaqadainvestitsiya jarayonlarini faollashtirish va rag‘batlantirish bo‘yicha maqsadli va ilmiy asoslangan faoliyatini qamrab oladi[19].

Mintaqada investitsiya siyosati avvalo mintaqa rivojlanishining strategik maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqishi, mintaqa iqtisodiyotining shakllangan tarkibini hisobga olishi, investitsiya jozibadorligini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim[20] . Hududda

---

[18] Ходус, В. В. Формирование и механизм реализации региональной инвестиционной политики промышленно-аграрного региона (на примере Омской области): диссертация ... кандидатаэкономических наук: 08.00.05 / В. В. Ходус. —Екатеринбург, 2011. — 220 с.

[19] Новокшонова, Е. Н. Оценка эффективности региональной инвестиционной политики / Е. Н. Новокшонова // Региональная экономика: теория и практика, 2014. — № 11 (338). — С. 49–60. — Библиогр.: с. 60 (5 назв.).

[20] Мякшин, В. Н. Региональная инвестиционная политика как основа государственного управления структурными преобразованиями / В. Н. Мякшин // Региональная экономика: теория и практика, 2014. — № 10 (337). — С. 16–26. — Библиогр.: с. 25 (5 назв.), с. 26 (5 назв., англ. яз.).

samarali investitsiya siyosati muayyan tamoyillar asosida shakllantirilishi lozim: komplekslik (investitsiya sohasining barcha tomonlarini tahlil qilish), tizimlilik (investitsiya oqimlariga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni hisobga olish), qulay investitsiya muhitini shakllantirishga qaratilgan maqsad va vazifalarni bajarishning ustuvorligi, riskning maqbul darajasi (iqtisodiy xavfsizlikning chegara koʻrsatkichlaridan oʻtib ketmaslik) va b.

Mintaqaviy investitsiya siyosatining olib borilishi investitsiya resurslarini harakatga solish va investitsiya kiritish uchun mintaqa tarmoqlari ustuvor yoʻnalishlari va salmoqli investitsiya loyihalarini aniqlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni oʻz ichiga oladi[21]. Mos ravishda mintaqani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish doirasida investitsiya dasturini ishlab chiqishda mintaqa muammolarini oʻrganishning maqbul usullarini asoslashga va ularni muhimlik darajasi boʻyicha tabaqalashtirishga, investitsiyalash maqsadlarini shakllantirishga, loyihalash metodikalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish, mintaqa iqtisodiyot tarmoqlari va uni yaxlit rivojlantirish maqsadlariga erishish imkoniyatini baholashga alohida e'tibor qaratish zarur.

## ADABIYOTLAR:

1. Жумаева, З. К. (2019). Современные Тенденции И Направления Развития Инвестиционной Деятельности В Регионах Республики Узбекистан. *Современные Проблемы Социально-Экономических Систем В Условиях Глобализации*, 148-152.
2. Jumayeva, Z. K., & Mamadjonov, G. N. (2024). Ways to Strengthen Financial Control in the Utilization of State Budget Funds. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, *4*(1), 61-64.
3. Jumayeva, Z. (2024). THE NEED FOR AN INNOVATIVE APPROACH IN MANAGING ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, *3*(1), 557-562.
4. Жумаева, З. К. (2023). Потенциал инвестиционной стратегии развития региона. *Gospodarka i Innowacje.*, *41*, 333-337.
5. Жумаева, З. (2023). МИРОВОЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. *Nashrlar*, 318-321.
6. Jumaeva, Z. K., & Gafurov, E. O. (2022). Fiscal policy in ensuring the economic security of the state. In *Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности* (pp. 358-361).
7. Жумаева, З. К. (2016). Эффективность стратегического управления предприятием. *Наука и образование сегодня*, (2 (3)), 60-62.
8. Jumaeva, Z. Q. (2020). REGIONAL FEATURES OF INVESTMENT POLICY OF UZBEKISTAN. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, *2020*(1), 48-55.

---

[21] Эльмурзаева Р.А. Актуальные проблемы современной региональной инвестиционной политики // Вестник Томского государственного университета. 2007. №295. С. 212-214.

9. Qayumovna, J. Z., Ne'matovna, R. N., & Azizovna, P. A. FAVORABLE INVESTMENT CLIMATE FORMATION ISSUES FOR ATTRACTING ACTIVE INVESTMETNS. *GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY*, 29.

10. Jumayeva, Z. Q. (2024). Methodology of Development of Comprehensive Development Programs of the Region Based On the Activation of Investment Processes. *European Journal of Business Startups and Open Society*, *4*(7), 137-140.

11. Жумаева, З. К. (2023). ПУТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА. *Gospodarka i Innowacje.*, *42*, 530-533.

12. Jumayeva, Z. Q. (2017). THEORIES OF ENSURE STABILITY IN LABOUR MARKETS OF DEVELOPED COUNTRIES. *Инновационное развитие*, (4), 64-66.

13. ЖУМАЕВА, З. СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЧЕК ПРОИЗВОДСТВЕННОГО РОСТА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *ЭКОНОМИКА*, *4*, 455-458.

14. Jumayeva, Z. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE INDUSTRIES AS A FACTOR OF GROWTH OF NATIONAL ECONOMY: REVIEW OF FOREIGN EXPERIENCE AND PROSPECTS FOR THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, *3*(2), 241-246.

15. Жумаева, З. К. (2024). Необходимость инновационного подхода в управлении организациями.

16. Жумаева, З. К., & Расулова, Н. Н. (2019). Инновационный путь развития экономики Узбекистана. *Теория и практика современной науки*, (5 (47)), 224-226.

17. Jumaeva, Z. K., & Gafurov, E. O. (2022). Fiscal policy in ensuring the economic security of the state. In *Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности* (pp. 358-361).

18. Jumaeva, Z. (2021). Modern trends in the economic development of the regions of Uzbekistan. In *Inter Conf*.

19. Алимова, Ш. А., & Шадиев, А. Х. (2025). СОВРЕМЕННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: АНАЛИЗ ДАННЫХ И ПЕРСПЕКТИВЫ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 205-211.

20. Алимова, Ш. А., & Тошов, М. Х. (2025). РОЛЬ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(5), 180-186.

21. Алимова, Ш. А., & Шадиев, А. Х. (2025). РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ЗА 2021–2024 ГОДЫ. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 245-252.

22. Алимова, Ш. А., & Тошов, М. Х. (2025). ЦИФРОВИЗАЦИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 259-266.

23. Алимова, Ш. А., & Тошов, М. Х. (2025). ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ: АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 137-144.

24. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). OZBEKISTONDA INNOVASION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH STRATEGIYASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 36-45.

25. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). INNOVATSION FAOLIYATNI QO ‘LLAB-QUVVATLASHNING YEVROPA MAMLAKATLARI TAJRIBALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(5), 35-44.

26. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASIDAGI IJTIMOIY VA IQTISODIY HOLAT, HUDUDDA SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(5), 23-30.

27. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). ISPANIYADA INNOVATSIYALARNI QO ‘LLAB-QUVVATLASH SOHASIDAGI ILG ‘OR TAJRIBALAR. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 24-35.

28. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). OLIY TA’LIM MUASSASALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH MINTAQANI IJTIMOIY VA IQTISODIY YUKSALTIRISH GAROVI SIFATIDA. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 46-54.

29. Bobojonova, M. J., & Sodiqova, N. T. (2025). HOZIRGI KUNDA YASHIL DAVLAT XARIDLARI HOLATI VA UNING ISTIQBOLLI YO ‘NALISHLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 153-163.

30. Bobojonova, M. J., & Sodiqova, N. T. (2025). JAHON IQTISODIYOTDA YASHIL IQTISODIYOTNING O'SISHI VA GG-GE-SD MODELI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(6), 251-260.

31. Bobojonova, M. J., & Sodiqova, N. T. (2025). YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA XALQARO HUJJATLARNING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING O'RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(5), 222-231.

32. Sodiqova, N. T., & Xalilov, B. B. (2025). KORXONA FOYDASINING TAQSIMLANISHI VA ISHLATILISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(5), 55-65.

33. Bahodirovich, X. B. (2025). DAVLATNING MAQSADLI JAMG ‘ARMALARI FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(5), 98-108.

34. Bahodirovich, X. B. (2025). DAVLAT KREDITI–DAVLAT EHTIYOJLARI UCHUN PUL MABLAG ‘LARINI JALB ETISH SHAKLI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(6), 95-104.

35. Bahodirovich, X. B. (2025). MOLIYAVIY NAZORAT: MAZMUNI, SOHALARI, OB’EKTI, PREDMETI, TIZIMI, VAZIFALARI, PRINSIPLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 79-89.

36. Hakimovich, T. M. (2025). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI YO ‘LGA QO ‘YISH VA MARKETING STRATEGIYALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 193-205.

37. Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORTCHI KORXONALARNI QO ‘LLAB-QUVVATLASH USULLARI VA VOSITALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 213-224.

38. Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORT QILUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINING NAZARIY TAHLILI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 137-148.

39. Ibodulloyevich, I. E. DEVELOPMENT DIRECTIONS OF INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN.

40. EI, I. (2025). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA UNI INVESTITSIYA BILAN TA’MINLASHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(5), 39-50.

41. EI, I. (2025). MINTAQALAR VA MA’MURIY HUDUDLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA’MINLOVCHI IQTISODIY TIZIM SIFATIDA. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(6), 58-69.

42. Raxmonqulova, N., & Muxammedov, T. (2025). HUDUDNING STRATEGIK IJTIMOIY-IQTISODIY SIYOSATINI BAHOLASH: METODOLOGIK YONDASHUV. *Modern Science and Research*, *4*(1), 918-921.

43. Raxmonqulova, N. O. (2025). KORXONALARDA YUZAGA KELADIGAN INQIROZ HOLATLARI VA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *2*(1), 1-7.

44. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI BOSHQARISHNING AHAMIYATI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *2*(1), 15-21.

45. Shadiyev, A. X. (2025). METHODS OF TEACHING THE “ECONOMIC THEORY”. *SHOKH LIBRARY*.

46. Shadiyev, A. X. (2025). DEVELOPMENT OF THE CURRICULUM FOR ECONOMIC DISCIPLINES IN PRIVATE UNIVERSITIES. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, *13*(1), 389-396.

47. Akbarovna, N. N. (2025). BYUDJET TIZIMINI ISLOH QILISHNING ASOSIY YO ‘NALISHLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(5), 80-86.

48. Akbarovna, N. N. (2025). MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT TECHNOLOGIES. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, *13*(1), 242-249.

49. Akbarovna, N. N. (2025). MENEJER FAOLIYATINING FUNKSIONAL VAZIFALARI VA UNING MADANIYATINING AHAMIYATI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 354-362.

50. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, *6*(6), 118-124.

51. Безуглова, М. Н. (2002). Государственное регулирование экономики.

52. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. *Modern Science and Research*, *2*(12), 506-512.

53. Базарова, М. С. (2020). Развитие внимания дошкольников посредством дидактических игр. In *Исследования молодых ученых* (pp. 37-40).

54. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O ‘RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(8), 48-52.

55. Bobojonova, M. J., & Toshev, M. H. (2025). JAHON BOZORIDA YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH TENDENSIYASI: FAKTLAR VA KO ‘RSATKICHLAR ASOSIDA TAHLIL. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 120-128.

56. Bobojonova, M. J., & Toshev, M. H. (2025). YASHIL IQTISODIYOTI RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(5), 154-159.

57. Jumayeva, Z. Q. (2025). ISSUES OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF COMPETITION ASSESSMENT IN THE BANKING SERVICES MARKET OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT*, *3*(1), 41-49.

58. Кайимова, З. А., & Темиров, Ш. (2016). Роль иностранных инвестиций в модернизации экономики республики Узбекистан. *International scientific review*, (2 (12)), 107-110.

59. To’rayevich, I. A., & AD, S. (2025). INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(5), 12-22.

60. To’rayevich, I. A., & AD, S. (2025). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(5), 29-38.

61. To’rayevich, I. A., & AD, S. (2025). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYA TIZIMI VA UNING IQTISODIYOTIDA TUTGAN O ‘RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(5), 64-75.

62. Sadilloyevna, D. M. (2025). Prospects for Investments in Modernization of the Economy in the Agricultural Sector. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *12*(01), 217-222.

63. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). АНАЛИЗ ТОЧКИ БЕЗУБЫТОЧНОСТИ И МАРЖИНАЛЬНОЙ ПРИБЫЛИ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 88-94.